



SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI
SHEVALARIDA KUNDALIK TURMUSH LEKSIKASINING
IZOGLOSSALARI

Termiz davlat universiteti magistranti

Sheraliyeva Iroda Aliqul qizi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani shevalarida kundalik turmushga oid leksik birliklarning izoglossalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi va kiyim-kechak bilan bog‘liq so‘zlarning hududiy tarqalishi, ularning fonetik va leksik variantlari hamda shevalararo farqlari aniqlanadi. Izoglossalar orqali mazkur birliklarning geografik chegaralari belgilab beriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek dialektologiyasi va areal lingvistika

yo‘nalishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Areal lingvistika, o‘zbek shevalari, dialekt, izoglossa, leksik izoglossalar, hududiy farqlar.

Abstract. In this article, the isoglosses of lexical units related to everyday life in the dialects of the Jarkurgan district of Surkhandarya region are analyzed. The study identifies the territorial distribution of words related to food, agriculture, and clothing, their phonetic and lexical variants, as well as dialectal differences. Through isoglosses, the geographical boundaries of these units are determined. The research results serve as an important source in the field of Uzbek dialectology and areal linguistics.

Keywords: Areal linguistics, Uzbek dialects, dialect, isogloss, lexical isoglosses, territorial differences.

Areal lingvistika tilshunoslikda til hodisalarining geografik tarqalishi va hududlar bo‘yicha farqlanishini o‘rganadigan alohida yo‘nalish hisoblanadi. Bu yo‘nalishning shakllanishida fransuz tilshunoslari katta rol o‘ynagan.



Keyingi davrlarda ham asta-sekinlik bilan rivojlanib bordi. XX asrning o'rtalariga kelib areal lingvistika yanada kengaydi va turli tillar hamda mintaqalar kesimida qo'lanila boshlandi. Bu davrda lingvistik atlaslar ko'plab mamlakatlarda tuzila boshlandi. Izoglossalar asosida esa shevalar chegaralari aniqlashtirildi.

O'zbek tilshunosligida ham areal tadqiqotlar muhim o'rin egallaydi. O'zbek shevalarini hududiy jihatdan o'rganish, izoglossalar asosida farqlarini aniqlash ishlari olib borilgan. Bu sohada tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, ammo yetarlicha o'rganilmagan. Bugunga kelib o'zbek tilshunosligida areal lingvistika bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar juda kam miqdorni tashkil etadi. Bu sohada Sh. Shoabdurahmonov, A. G'ulomov, A. Shermatov, M. Mirzayev, A. Aliyev, N. Rajabov, N. Murodova, Y. Ibrohimov kabi olimlar tadqiqot olib borganlar.

Areal lingvistikaning vazifasi til hodisalarining geografik tarqalishini aniqlash, shevalar va lahjalar o'rtasidagi hududiy farqlarini aniqlash va aniqlangan izoglossalar orqali ularni xaritalashtirishdan iboratdir. Bu sohaning asosiy tushunchalaridan biri izoglossa hisoblanadi. Izoglossa muayyan til hodisasining geografik tarqalish chegarasini ifodolovchi shartli chiziqdir. Ya'ni izoglossa bir xil til hodisasi uchraydigan hududlarni aniqlab chegaralashdir. Izoglossa moddiy -maishiy hayotda ishlatiladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak nomlari bilan bog'liq birliklarni o'zida qamrab oladi. Bu nomlar turli viloyat, turli tumanlar va hatto turli qishloqlarda ham bir-biridan farqli tarzda qo'llaniladi.

Buni biz aynan Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani misolida dialektlarning farqli tomonlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Ushbu hududdagi izoglossalar quyidagi tasnif qilinadi:

Uy-ro'zg'or va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan izoglossa nomlari:
Ayvon – dahliz, daliz, peshayvon, **hovli-** dash, tashqari, **supa-** tapchan, supacha, **ko'rpa-** ko'rpacha, yakandoz, to'shamchi, **gilam-** sholcha, palos,

palas, **yosti**- bolish, lo'libosh, tirsak, **supurgi**- shipirgi, shibirtki, oyimsupurgi, **choynak**- chovgum, chovki, choynik, **kosa**- shakasa, kasa, **soat**- saat, sog'at, sog'ot, **ketmon**- kitman, katman, **jo'ya**- egat, agat, marza, **arava**- oraba , orava, **sigir**- mol, qoramol, inak, **o'roq**- uraq, o'raq, **yer**- tomorqa, **dasht**- yaylov , **ariq**- oriq, **molxona**- podaxona, **qo'ra**- qo'raxona, bostirma, **yem**- yemish, jemish, **makkajo'xori**- makka, makkapoya, **bug'doy**- bug'day, g'alla, **qo'y**- ushoq mol, **daraxt**- novda, daraq, **tuproq**- turpoq, **shoxa**- pandshaxa , **oftoba**- ottoba, ottaba ,oftaba, **tandir**- tondir.

Oziq- ovqat nomlari izoglossalari: **Non**- patir, nonvoynon, xleb, **ovqat**- avqot, ovqot, **palov**- osh, quyuq osh, palav, **sho'rva**- shurva, shurpa, shurvo, **keskan osh**- keskan, keskan shulla, **tandir go'sht**- tandir, tandirlama, **shirguruch**- shiringuruch, shirbirinch, **shulla**- shovla, suyuq osh, jalama, yalama, xo'rda, **qatiq**- qotiq, chakki, chuchchi qatiq, **cholop**- chalop, **qovurilgan go'sht**- qovurma, jiz, **o'rik**- zardoli, zardolu, zordali, **gilos**- olcha, **sutli non**- shirin non , patir, **bodring**- badring, badrin, **pomidor**- pamidor, pamadir, pomadir, pamildori, **kartoshka**- kartishka, **mol go'sht**- poda go'sht, **uzum**- juzum, uzim, **tarvuz**- torbuz, torvuz, **qovun**- qovin, qavun, **yalpiz**- yolpiz, jolviz, **ko'kat**- ko'k .

Kiyim-kechak nomlari izoglossalari: **Ko'ylak**- koylak, kuylak, **chopon**- ton, chopan, **ro'mol**- rumal, ro'mal, **kavush**- kalish , kavish, **nimcha**- chakmon, vaskarcha, **do'ppi**- duppi, qalpoqcha, **tapichka**- shatak, shaltak, **jelak**- yaktak, yahtak, **belbog'**- bilbog', qiyiqcha, belqars, **ro'molcha**- qo'rmolcha, qo'rmol, **tufli**- tupli, **xalat**- xolat, ustkiyim, **etik**- itik, **paymoq**- naski, jo'rob, **ko'ylak**- mayka, **kastyum**- kastim, kastum, kastin, **jenfer**- jenfir, jimpir.

Izoglossalarning fonetik xususiyatlari: Izoglossalar til hodisalarining turli sathlariga oid bo'lishi mumkin bo'lib, shulardan biri fonetik izoglossalardir. Fonetik izoglossalar muayyan tovush hodisasining ma'lum hududda qo'llanishi va uning boshqa hududlardan farqlanishini ifodalaydi. Ular tilning fonetik

tizimidagi o'zgarishlar va variantlarning geografik tarqalishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Fonetik izoglossalar, asosan, unli va undosh tovushlarning talaffuzidagi farqlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim o'zbek shevalarida adabiy tildagi "o" tovushi boshqa hududlarda "a" yoki "u" tarzida talaffuz qilinishi mumkin. Xuddi shuningdek, undosh tovushlarning almashinuvi (masalan, k-q, g-g', p-b) yoki tushib qolishi ham fonetik izoglossalarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Fonetik izoglossalarning muhim xususiyatlaridan biri — ularning aniq geografik chegaralarga ega bo'lishidir. Ya'ni ma'lum bir tovush hodisasi bir hududda faol qo'llansa, boshqa hududda u umuman uchramasligi yoki boshqa shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Shu orqali shevalar o'rtasidagi fonetik farqlar aniqlanadi va hududiy chegaralar belgilanadi.

Bundan tashqari, fonetik izoglossalar til tarixini o'rganishda ham muhim rol o'ynaydi. Ular orqali tovush o'zgarishlarining qadimiy yoki yangi ekanligini, shuningdek, qo'shni hududlar va tillar ta'sirini aniqlash mumkin. Ayniqsa, chegaradosh hududlarda fonetik izoglossalar ko'pincha aralash va o'tish xususiyatiga ega bo'ladi.

Izoglossalarning leksik va morfologik xususiyatlari: Leksik izoglossalar muayyan predmet, hodisa yoki tushunchani ifodalovchi so'zlarning turli hududlarda turlicha nomlanishi bilan bog'liq. Bunda bir xil mazmuni ifodalovchi, ammo shaklan farqli bo'lgan so'zlar turli shevalarda qo'llanadi. Masalan, kundalik turmushga oid predmetlar — oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki kiyim-kechak nomlari bir hududda bir xil, boshqa hududda esa boshqa nom bilan atalishi mumkin. Ana shu farqlarning geografik chegaralari leksik izoglossalarni hosil qiladi.

Leksik izoglossalarning muhim xususiyati — ularning xalqning turmush tarzi, tarixiy rivojlanishi va madaniy muhit bilan chambarchas bog'liqligidir. Masalan, qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarda shu sohaga oid atamalar boy

va xilma-xil bo‘ladi. Shuningdek, qo‘shni tillar bilan aloqalar ham leksik izoglossalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Morfologik izoglossalar esa so‘zlarning grammatik shakllanishidagi hududiy farqlarni ifodalaydi. Ular qo‘shimchalar, so‘z yasalishi va grammatik kategoriyalarning turlicha qo‘llanishi orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, ayrim shevalarda ko‘plik qo‘shimchasi yoki egalik shakllari adabiy tilga nisbatan boshqacha shaklda qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, fe‘l zamonlari yoki nisbat shakllarining variantlari ham morfologik izoglossalarga kiradi.

Morfologik izoglossalarning yana bir muhim jihati — ular ko‘pincha fonetik va leksik xususiyatlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ya’ni bir hududda uchraydigan grammatik shakl boshqa hududda fonetik jihatdan o‘zgargan yoki boshqa leksik birlik bilan ifodalangan bo‘lishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani shevalarida kundalik turmush leksikasining izoglossalari o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ushbu hudud shevalarida oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi va kiyim-kechak bilan bog‘liq leksik birliklar sezilarli darajada hududiy farqlanish xususiyatiga ega. Bu farqlar izoglossalar orqali aniq namoyon bo‘lib, ularning geografik chegaralarini belgilash imkonini berdi.

O‘rganilgan materiallar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, izoglossalar o‘zbek shevalarining hududiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy vosita hisoblanadi. Ular orqali til birliklarining tarqalish doirasi, shevalararo o‘xshashlik va farqlar hamda tilning areal xususiyatlari chuqurroq ochib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, uy-ro‘zg‘or va qishloq xo‘jaligi izoglossalari, oziq-ovqat nomlari izoglossalari va kiyim-kechak nomlari izoglossalari tilning mauiyan bir hududiy xususiyatlarini aniqlashda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun izoglossalarni yig‘ish, o‘rganish, tadqiq etish areal lingvistika fanining eng kerakli va muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O‘qituvchi, T.: 1972, 5 b
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2-jild, 2012.
3. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik ildizlari va yo‘nalishlari. Lingvistika yo‘nalishidagi magistrilar uchun qo‘llanma. Andijon 2006.
4. Bobomurodova M. Surxonadaryo shevalarining nazariy asoslari. Maqola 2025.
5. Ziyonet – <https://ziyonet.uz>.
6. Google Scholar – <https://scholar.google.com>.
7. ResearchGate – <https://www.researchgate.net>.
8. Academia.edu – <https://www.academia.edu>.

